

## O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Shadiyeva Dilfuza Shamirzayevna**

*filologiya fanlari nomzodi "International school of finance technology and science" instituti o'qituvchisi*

---

### ARTICLE INFO.

---

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, zamonaviy texnologiyalar, metod, axborot, o'quv materiali.

### ANNOTATSIYA

---

Mazkur maqola o'zbek tilini o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, bu orqali dars samaradorligini oshirish haqida. Shuningdek, talabalarda qiziqish uyg'otish uchun axborot vositalarini darslarda faol qo'llash xususida so'z yuritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

---

Katta sur'atlar bilan rivojlanayotgan jamiyatimizni, umuman olganda, kundalik hayotimizni axborot texnologiyalari vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qaysi soha haqida gapirmaylik, bu vositalar biz uchun juda muhimdir. Ayniqsa, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash alohida dolzarblik kasb etmoqda. Kompyuter dasturlari vositasida yoshlarning bilimi va dunyoqarashini kengaytirishda keng foydanilmoga. Turli fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilib, dars samaradorligini yanada oshirmoqda. Xususan, o'zbek tilini o'qitishda ham axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Dars o'tishda qo'shimcha vositalar yo'lga qo'yilishidan oldin turli metodlardan foydalanilgan. Bugungi kunda mazkur metodlar zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashgan holda dars jarayonida qo'llanmoqda.

Ona tili ta'limining samaradorligi ta'lim prinsiplariga rioya qilish bilan birga ta'lim metodlari va usullarini to'g'ri tanlashga ham bog'liq.

Metod (yunoncha) — muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish (bilish) usullari majmui. Metod tushunchasining falsafiy ma'nosi hodisalarni kuzatish va ularni ilmiy jihatdan tasnif qilish bo'lsa, uning didaktika o'r ganadigan tomoni talabani bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish va ulrni amaliyotda qo'llash demakdir.

Pedagogika fanlari doktori, metodist-olim A.Q.G'ulomov ta'lim metodlarini quyidagi turlarga bo'lib o'iganishni tavsiya etadi:

1. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar:
  - bilimlarni tayyor holda bayon etish metodi;
  - bilimlarni suhbat vositasida bayon qilish metodi;
  - Bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodi.
2. Talaba faoliyati bilan bog'liq metodlar:
  - reproduktiv (tayyor o'quv materiali bilan ishslash) metod;

- izlanishga asoslangan metodlar.

Ona tili o'qitish metodikasining ta'lismi metodlari zamonaviy taraqqiyot bilan birga takomillashib, rivoj topib bormoqda. Davlat ta'lismi standartlari ta'lismi tizimiga muayyan inson shaxsiyatini maqsadli rivojlantirish talablarini qo'ydi. Yangilanayotgan ta'lismi metodikasi pedagogikada samarali deb hisoblangan ongli verbalkognitiv ta'lismi tizimiga tayangan holda interaktiv metodlar asosida takomillashtirilishi hamda zamon talablariga mos, milliy dardiyatlarga uyg'un bo'lishi zarur.

Yuqorida sanab o'tilgan an'anaviy ta'lismi metodlarini chuqur o'rganish, rivojlantirish va umumjahon ta'lismi metodlariga yaqinlashtirishga urinish quyidagi natijalarni beradi:

1. Tayyor bilimlarni bayon qilish metodi:
  - darslik va o'quv qo'llanmalariga asoslanish;
  - KO'rgazmali didaktik vositalarga asoslanish (internet ma'lumotlari, ona tilidan slayd-jadvallar, o'quv kompyuter disketlari, dars mavzularini yoritish uchun mo'ljallangan o'quv rasmlari, portret, peyzaj (rang-tasvir), tayyor badiiy-ramziy, ma'rifiy matnlar).
2. Yo'naltiruvchi ta'lismi metodi. Talaba bilimini bosqichma-bosqich, tizimli og'zaki va yozma yo'naltiruvchi topshiriqlar asosida boyitish.
3. Muammoli ta'lismi metodi.
4. Ongli — verbal-kognitiv ta'lismi metodi (Kashfiyot ta'lismi metodi).  
Talabaning bilim va ko'nikmalarini oshirishda quyidagi metodalar ham samarali hisoblanadi:
  1. Ongli kuzatish va xotirada saqlash metodi.
  2. Yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida izlanish va xulosalar chiqarish, bahs va munozara metodi.
  3. Muammoni yechishga qaratilgan, maqsadli ijodiy faoliyat metodi.
  4. Mustaqil VA ijodiy izlanish orqali kashf qilish (matn tuzish) metodi.

Talabalar bu metodlar vositasida o'zi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy-ijodiy tatbiq etadi.

Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi ta'lismi tizimida eng qadimiylari va sinalgan usullardan hisoblanadi. Bu metod bilan ishslashda o'qituvchi ortiqcha toliqmaydi: oldindan tayyor, talaba uchun tushunarli holatga keltirilgan o'quv topshiriqlari va mashqlarni bajarishni tavsiya qiladi. O'quv-texnik vositalardan samarali foydalanadi.

- O'qitish metodlarini tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:
- ona tili izchil kursining ayrim mavzularini o'rganish reproduktiv tayyor o'quv materiali bilan ishslash) va muammoli ta'lismi (izlanuvchanlikka asoslangan o'qitish) metodlarini birgalikda olib borish;
- til o'qitish metodlarini tanlashda talabalarning tabiiy qobiliyati, o'zlashtirish darajasi, mustaqil ishslash imkoniyati, yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- berilgan matndagi notanish so'zlar ma'nosini izohlash hamda bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni topish;
- ularning ma'nodoshlari, zid ma'nolisi, shakldoshlari, uyadoshlari bilan ishslash;
- Turli lug'atlar yoki qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslashni o'rganish.  
O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida quyidagi natijalarga erishishi ko'zda tutilgan:
- ta'limga axborot texnologiyalari bo'yicha tayanch tushuncha, atama va vazifalar;

- axborot-ta'lim muhitining tarkibi va tuzilishi;
- axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasining shakllanishida jahon tajribasi;
- Axborot texnologiyalari dunyosida ilmiy va ta'limi tadqiqot ishlarining reformasi haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, o'qituvchi axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati, ta'lim jarayonida interaktiv doskadan foydalana olishni bilishi;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish;
- multimedia darsliklarining turlari va tuzilishini bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarishi;
- Elektron ta'lim resurslaridan oqilona, samarali foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak [2, 35-bet].

Ta'lim usullari tobora takomillashib, zamonaviy texnologiyalarga ko'proq tayanmoqda. Bu aloqani rivojlantiradi, ma'lumot olishni osonlashtiradi va mavzuni tushuntirishni osonlashtiradi. Jumladan, audio-vizual va interaktiv dasturiy ta'minot hamda gadjetlardan foydalanish orqali ta'lim berish, bir tomonidan, vaqtini tejash, ikkinchi tomonidan, mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Texnologiya va o'qitishning ushbu yo'llari ta'limda yangi imkoniyatlarni ochadi. Ta'lim texnologiyalari real vaqtda virtual davomat, jonli chat hamda o'qituvchilar va talabalar bilan yuzma-yuz muloqotni ta'minlaydi. Bundan tashqari, ilgari yozilgan darslarga, shuningdek, o'qish uchun zarur bo'lgan boshqa ko'plab materiallarga kirish mumkin.

Sinflarda kompyuter va planshetlar bilan ishslash, kitobsiz ta'lim haqida bugun juda ko'p gapirilmoqda. Buning qanday ijobiy tomonlari bor? Birinchi navbatda, barcha ma'lumotlar planshetga (yoki kompyuterga) joylashtiriladi. Ta'lim mazmunini raqamlashtirish ma'lumotlarga kirishni osonlashtiradi, qog'oz tejaladi. I. Bundan tashqari, kompyuterlar va planshetlar quyidagi yo'llar bilan yordam beradi:

- ular ta'limni tom ma'noda yengillashtiradi (og'ir sumkalar yo'q);
- istalgan vaqtda, istalgan joydan kirish qulayligini ta'minlaydi;
- kompyuter savodxonligini takomillashtiradi;
- talabalarga multimedia materiallaridan foydalanish imkonni o'qishni osonlashtiradi;
- yangi texnologiyalar bilan tanishish keyingi ta'limga hamda tanlagan kasbiga mukammal tayyorgarlik vazifasini o'taydi;
- Kompyuterda test o'tkazish o'qituvchilar uchun bilimlarni baholashni osonlashtiradi [1, 1-bet].

Ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning zamonaviy rivojlanishining asosini tashkil etadi. Gadjetlar, dasturlash va zamonaviy aloqa vositalari bilan erta yoshda tanishish keyinchalik yangi standartlar va ish usullarini qabul qilishni ancha osonlashtiradi. XXI asr ta'lim usullariga moslashish maqsadida ta'lim modernizatsiya qilinmoqda. Bu talabalarni, bir tomonidan, zarur ma'lumotlarni qisqa muddatda topib, xotirada tiklash hamda zarur vaziyatlarda amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allison Academy. What technology is used in education today. 1993.
2. Ziyodova T.U. O'qituvchi kitobi. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. — T.: 2002.
3. Shofqorov A. M., Baykabilov U. A., Bayzakov J. A., Shayxislamov N. Z. OGL. (2020). Til o'qitishda kompyuter texnologiyalari. Science and Education, 1(Special Issue 3)

4. Ilhomovna S. Z. (2017). Effective communicative tasks that promote spoken interaction skills in ELT. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 5(3)*.
5. Ilhomovna S. Z. ENHANCING SPEAKING ACCURACY AND FLUENCY FROM INSTRUCTIONAL PERSPECTIVES IN ESL CLASSROOMS. In *The V International Science Conference «Theory, practice and science», October 18–20, Tokyo, Japan.* 291 p. (p. 196).
6. Salieva Z. I. Discussion as one of the methods to form speaking skills at a lesson of English. *Pedagogika visshei shkoli= Pedagogy of the Higher School.* 2016; 3 (6): 63-65.
7. Daminov, N. K. (2022). The Role of Simultaneous Interpretation in the System of Types of Translation. *International Journal on Integrated Education, 5(11),* 10-15.
8. Даминов, Н. К. (2021). WAYS OF COMPRESSION USED IN THE PROCESS OF SIMULTANEOUS INTERPRETATION. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(6)*.
9. Kudratovich, D. N. (2021). Psycho linguistic features of simultaneous interpretation. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3),* 360-365.